

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMUY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.12.2019.I.17.01 RAQAMLI ILMUY KENGASH**  
**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**BOLTAYEV TO'LQIN QO'ZIYEVICH**

**TIJORAT BANKLARIDA VALYUTA OPERATSIYALARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri – 2025 yil**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавления автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)  
on economical sciences**

**Boltayev To‘lqin Qo‘ziyevich**

Tijorat banklarida valyuta operatsiyalarini takomillashtirish ..... 3

**Болтаев Тулкин Кузиевич**

Совершенствование валютных операций в коммерческих банках ..... 29

**Boltaev Tulkin Kuzievich**

Improvement of currency operations in commercial banks ..... 57

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 62

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMUY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.12.2019.I.17.01 RAQAMLI ILMUY KENGASH**  
**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**BOLTAYEV TO'LQIN QO'ZIYEVICH**

**TIJORAT BANKLARIDA VALYUTA OPERATSIYALARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri – 2025 yil**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan B2020.2PhD/Iqt1298 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati och tilda (o'zbek, rus, ingliz) Ilmiy kengash veb-saytida ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) va "Ziyonet" Axborot-ta'lif portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Toshmatov Zoyir Xudayberganovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Jumayev Nodir Xosiyatovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Qulliyev Istam Yangimuradovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot: **O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Dsc.03/30.12.2019.L17.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil "26" 12 kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100000, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 60-A uy. Tel.: (99871) 234-53-34, faks: (99871) 234-46-26, e-mail: [admin@tsue.uz](mailto:admin@tsue.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (18:57 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100000, Toshkent shahri Amir Temur ko'chasi, 60-A uy. Tel.: (99871) 234-53-34, faks: (99871) 234-46-26, e-mail: [admin@tsue.uz](mailto:admin@tsue.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "13" 12 kuni tarqatildi.  
(2025 yil "13" 12 dagi 90 raqamli reestr bayonnomasi).



**T.Z. Teshabayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**J.X. Ataniyazov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**I.N. Qo'ziyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsaфа doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbliги va zarurati.** Jahon iqtisodiyotidagi tarkibiy o‘zgarishlar, turli darajadagi rivojlanishlar davlatlar o‘rtasida valyuta almashinuvlarining ham turlicha printsiplar va xarakterlarda amal qilishiga, takomillashi sabab bo‘lib bormoqda. Valyuta kursini erkin suzib yuruvchi rejimida o‘rnatalishi rivojlangan mamlakatlar valyutasini barqarorligini ta’minlasa, rivojlanayotgan va o‘tish davridagi mamlakatlar valyutasini turlicha o‘zgartirib iqtisodiyotga ta’sirini o‘tkazish imkoniyatini yaratadi. Xalqaro valyuta fondi mutaxassislarining hisob-kitoblariga ko‘ra AQSh dollari jahon bozorida hali ham juda katta rolga ega ekanligini ta’kidlashmoqda. Xususan, “Markaziy banklar tomonidan AQSh dollarida saqlanayotgan zaxiralarning ulushi 58,2 foizni tashkil etadi. Bu borada eng yaxshi ikkinchi ko‘rsatkich yevroga tegishli 19,7 foiz. Keyingi o‘rinlarda yena 5,6 foiz, funt sterling 4,9 foiz, Kanada dollari 2,7 foiz, Avstraliya dollari 2,2 foiz va yuan 2,1 foizni tashkil etmoqda”<sup>1</sup>. Ushbu holatlarning mavjudligi valyuta operatsiyalarini va uning rivojlanishini tadqiq etish zaruratini vujudga keltirmoqda.

Jahonda Markaziy banklar tomonidan o‘z milliy valyutalari va uning boshqa davlatlar valyutalariga ayrboshlash, uni saqlash va erkin konvertatsiyalanishi bilan bog‘liq bir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bugungi kunda davlatlar o‘rtasidagi noaniq bir vaziyatlarda milliy valyutaning qadrini oshirish muhim masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Tijorat banklari tomonidan tashqi savdoni amalga oshiruvchi xo‘jalik subyektlarini yetarli miqdorda va kerakli vaqtida chet el valyutasidagi mablag‘lar bilan ta’minalash muammosi hamda mamlakatda xalqaro standartlarda belgilangan m’yorda oltin valyuta zaxirasini ta’minalash muammosi saqlab qolinayotganligi sababli tijorat banklari valyuta operatsiyalarini takomillashtitish va uni rivojlantirish bilan bog‘liq ilmiy tadqiqot ishlarini o‘tkazishni taqozo etmoqda.

O‘zbekistonda valyuta munosabatlarini liberallashtirish va valyuta operatsiyalarini tashkil etishning uslubiy asoslarini mustahkamlash borasida keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. «Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-sentyabrdagi PF-5177-sonli Farmonining qabul qilinishi bilan tijorat banklarining valyuta operatsiyalarini amalga oshirish bo‘yicha erkinligi oshdi va mamlakatimiz valyuta munosabatlarini rivojlantirishda faol bosqichga ko‘tarildi. Qabul qilingan farmonga asosan “2017-yilning sentyabr oyidan boshlab milliy valyutaning almashuv kursini faqatgina bozor mexanizmlari asosida, ya’ni valyuta bozorida chet el valyutalariga bo‘lgan talab va taklifga asosan belgilash tartibi joriy qilindi”<sup>2</sup>. Ushbu Farmonning qabul qilinishi orqali valyuta sohasida yuzaga keladigan iqtisodiyotga salbiy ta’sirlarni bartaraf qilish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi valyuta munosabatlarini rivojlantrish, banklarning valyuta

<sup>1</sup> www.imf.com Xalqaro valyuta fondi ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari

<sup>2</sup> <https://lex.uz/docs/3326421> 2017 yil 2 sentyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-5177-sonli Farmoni

operatsiyalarini takomillashtirish, jumladan, tijorat banklari valyuta ayiraboshlash shahobchalari faoliyatini soddalashtirish, xalqaro savdoga xizmat ko‘rsatish, chet el valyutasida depozitlar jalg qilish va chet el valyutasida moliyalashtirish kabi bank xizmatlarining uslubiy masalalarini tadqiq qilish, valyuta munosabatlarining asosiy tushunchalrini mohiyatini izohlash, shuningdek, valyuta operatsiyalarning erkinlashuvi iqtisodiy rivojlanish hamda tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlanishiga xizmat qilishini ta’minlash uchun uslubiy asoslarini takomillashtirish masalalari bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston-2030” Strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2017 yil 2 sentyabrdagi PF-5177-sonli «Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-sentyabrdagi PQ-3270-sonli «Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2018-yil 23-martdagi PQ-3620-sonli «Bank xizmatlari ommabopligrini oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida» qarorlari va boshqa ushbu tadqiqot mavzusiga doir normativ-huquqiy hujjalarda keltirilgan maqsadlarga erishishda ushbu tadqiqot ishi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq holda amalga oshirilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Albatta, respublikamiz va chet elning taniqli olimlari valyuta kursi va uni prognozlashning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq qilgan. Xorijlik iqtisodchilardan J.Keyns, M.Fridmen, M.Pebro, L.Krasavina, S.Fisher, F.Maxlup, R.Mandell, A.Shmireva<sup>3</sup> va boshqalar o‘zlarining ilmiy risolalarida mavzuning ba’zi jihatlarini yoritgan.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan Sh.Abdullaeva, A.Vaxabov, T.Boboqulov, T.Rasulov, S.Berjanov, N.Jumayev va G.Ismoilovalarning<sup>4</sup> ilmiy izlanishlarida

<sup>3</sup> Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. –М.: ГЕЛИОС АРВ, 1999. -352 с.; Фридмен М. Основы монетаризма / Под науч.ред. Козлова Д.А.–М.: ТЕИС, 2002. -175 с.; Пебро М. Международные экономические, валютные и финансовые отношения: Пер. с франц./ Общ. ред. Н.С. Бабинцевой. – М.: Прогресс, Универс, 1994. –496 с; Международные валютно-кредитные и финансовые отношения. Под ред. Красавина Л.Н. – Москва: Финансы и статистика, 2001. -608 с.; Фишер С., Дорнбуш Р., Шмалензи Р. Экономика: Пер. с анг. 2-е изд. –М.: Дело, 1997. -864 с.; Machlup F. International payments, debts, and gold. Princeton University. London: George Alien & Unwin, 1966. - pp. 7-50.; Mundell R. Optimal Currency Areas / American Economic Review, Vol. 51, 1961, p. 660. Шмырева А.И. и др. Международные валютно-кредитные отношения. –СПб.: Питер, 2001. -272.

<sup>4</sup> Abdullaeva Sh.Z. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari. – Toshkent “Iqtisod va moiliya”, 2005. -588 b.; Vahabov A.B. и др. Международные валютно-кредитные и финансовые отношения. I-часть. – Ташкент: НУРТ, 2003. – 276 с.; Bobakulov T.I. Milliy valyutaning barqarorligini ta’minlash: muammolar va echimlar. –Toshkent “Fan va texnologiya”, 2007. -184 b.; Rasulov T.S. Xalqaro valyuta munosabatlari nazariysi. –Toshkent: Moliya, 2008.-345 b.; Berjanov C.A. Валютная система, валютный рынок и валютные операции. Нукус, “Каракалпакстан”, 1996. – 136 с.; Жумаев Н.Х., Кудайбергенов Ж.Ш. Валютный курс и пути её регулирования. Учебное пособие, “Iqtisod va moiliya”, Ташкент, 2006, с.132.; Ismoilova G.F. O‘zbekistonda milliy valyuta – “so‘m” ning qadrini oshirish va barqarorligini ta’minlash muammolari: 08.00.01 iqt. fan. nomzodi darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Т., 2000. –22 b.

valyuta kursi va uni shakllanishi bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan. Bundan tashqari, valyuta kursini tartibga solish va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili T.Boboqulov, N.Jumayev va M.Abdirimovlar tomonidan o'rganilgan, lekin valyuta operatsiyalari va uni samaradorligi masalalari bo'yicha alohida ilmiy tadqiqot ishlari yetarli darajada olib borilmagan.

Xususan, M.Ibodullayevning tadqiqotlari zamonaviy bozor iqtisodiyotida muddatli valyuta operatsiyalari, uning hozirgi holatini tahlil qilish va O'zbekiston tijorat banklari faoliyatida valyuta pozitsiyasini boshqarishga bag'ishlangan.

Mazkur tadqiqot mavzusida bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlari va amalga oshirilgan ilmiy izlanishlarga qaramasdan, banklarda valyuta operatsiyalarini takomillashtirish va rivojlantrish masalalari to'liq va tizimli holda o'rganilmagan. Bu holat tadqiqot ishida o'rganilgan ilmiy-amaliy muammolar, ularni kamaytirish va oldini olish bo'yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning dolzarblik darajasini belgilaydi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliv ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalar bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasing "Iqtisodiyoti modernizatsiya qilish sharoitida moliya, bank va hisob tizimini muvofiqlashtirishning ilmiy asoslari" mavzusidagi strategik ilmiy tadqiqot yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O'zbekiston tijorat banklarida valyuta operatsiyalarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish hisoblanadi.

#### **Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:**

xalqaro iqtisodiy munosabatlар va unda valyuta munosabatlarining rolini organish;

valyuta munosabatlari asosiy tushunchalari hisoblangan chet el valyutasi, valyuta kursi va valyuta operatsiyasi tushunchalari mohiyatini va o'ziga xos xususiyatlari tavsiflash;

O'zbekistonda valyuta operatsiyalari hajmi dinamikasi va tarkibini tahlil qilish;

valyuta bozorida tijorat banklarining orni va ularning valyuta operatsiyalarini amalga oshirish masalalrini tadqiq etish;

tijorat banklarining valyuta operatsiyalarini tasniflanishi va uning bank moliyaviy holatini, daromadini va risklarini tahlil qilishdagi ahamiyatini baholash;

valyuta operatsiyalarini amalga oshirishdagi xorij tajribasini atroflicha tadqiq qilish asosida tegishli xulosalar berish;

valyuta operatsiyalari ko'rsatkichlarining korrelyatsion tahlilini amalga oshirish va unga baho berish;

tijorat banklarining valyutadagi daromadlarini oshirish va valyuta risklarini kamaytirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;

valyuta operatsiyalarida mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llarini tadqiq qilish;

valyuta operatsiyalarini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha taklif va tavsiyalarni tizimlashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasining AQSh dollariga nisbatan kurslari, O‘zbekiston asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari hamda O‘zbekiston tijorat banklari valyuta operatsiyalari bilan bog‘liq munosabatlar tanlangan.

**Tadqiqotning predmeti** banklarning valyuta operatsiyalari jarayonida vujudga keladigan moliyaviy munosabatlar majmuini tadqiq qilish hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda statistik kuzatish, guruhlash, qiyoslash, tahlil qilish va sintez, grafik, dinamik va korellyatsion-regression hamda ekonometrik tahlil kabi usullar qo‘llanildi.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

tijorat banklarida risklarni samarali boshqarishda barcha xorijiy valyutadagi risklarning ulushi jami risklarda 15 foizdan oshib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik taklif etilgan;

banklarning valyuta operatsiyalaridan olinadigan daromadlilik darajasini optimallashtirish va barqarorlashtirishda valyuta operatsiyalaridan olinadigan daromadlarni har yili kamida 10 foizdan ortiq bo‘lishini ta’minlash taklif etilgan;

tijorat banklarining spot operatsiyalarida sotib olingan xorijiy valyuta bilan sotilgan valyuta o‘rtasidagi spredning miqdori sotib olingan valyutaning valyuta qiyamatining kamida 1 foizini tashkil etishi lozimligi taklif etilgan;

banklarda xorijiy valyutadagi investitsion loyihalarning texnik-iqtisodiy asoslarini aniqlashda va moliyalashtirish mexanizmida valyuta kursi omilini inobatga olish taklif etilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

mamlakat tashqi savdosi, eksport va importi hajmi yildan yilga ortib borishi natijasida chet el valyutasida amaliyotlar ko‘lami o‘sishiga olib kelishini ilmiy asoslash hamda shu munosabat bilan tijorat banklarida valyuta operatsiyalari ko‘lamini, xizmatlar turini kengaytirish va valyuta operatsiyalaridan daromadni oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan;

valyuta operatsiyalaridan daromad va samaradorlikni oshirish maqsadida valyuta risklarini baholash, boshqarish usullari hamda valyuta derivativlaridan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

jami valyuta operatsiyalarida muddatli valyuta operatsiyalari ulushini oshirish muhimligini hisobga olib, uni amalga oshirish mexanizmiga optimallashtirilgan me’yorlar qo‘llash zarurligi asoslangan;

tijorat banklari valyuta amaliyotlarida operatsiyalarida, ya’ni valyuta ayiraboshlash, chet el valyutasida to‘lovlar, mablag‘lar jalb qilish va joylashtirish, plastik kartalarga xizmat ko‘rsatish, pul o‘tkazmalari va boshqa valyuta amaliyotlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish, shuningdek, bu texnologiyalar valyuta operatsiyalari samaradorligi oshishiga olib kelishi o‘rganilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dissertatsiya tadqiqotida olingan ilmiy natijalarning ishonchliligi ishda qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma’lumotlar bazasining rasmiy manbalardan olingani, shuningdek, chiqarilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi

bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Olingan xulosalar, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda, valyuta operatsiyalarini takomillashtirishning kontseptual yo‘nalishlarini ishlab chiqishda, davlat ilmiy-texnika dasturlari va istiqboldagi rejalarini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar asosida iqtisodiyotni rivojlantirishda, valyuta operatsiyalarini takomillashtirishda, ushbu sohani tartibga solish va rivojlantirish bo‘yicha normativ-huquqiy bazani ishlab chiqishda qo‘llanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tijorat banklarida ushbu tadqiqot ishining natijasi sifatida valyuta operatsiyalarini takomillashtirish yuzasidan olingan ilmiy takliflar asosida:

tijorat banklarida risklarni samarali boshqarishda barcha xorijiy valyutadagi risklarning ulushi jami risklarda 15 foizdan oshib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik taklifi AT “Aloqabank” tomonidan amaliyatga joriy etilgan (“Aloqabank” ATBning 2023-yil 7-apreldagi 38-04/1139-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyatga joriy etilishi natijasida ATB “Aloqabank”ning valyuta operatsiyalari samaradorligini oshishiga erishildi hamda valyuta risklarini boshqarish mexanizmi yanada takomillashtirildi. Natijada, xorijiy valyutadagi risklarning umumiyl risk tarkibidagi ulushi 15 foizdan oshmasligi valyuta kursi o‘zgarishlaridan kelib chiqadigan zararlarni kamaytiradi. Bu esa bankning moliyaviy barqarorligini oshirgan.

banklarning valyuta operatsiyalaridan olinadigan daromadlilik darajasini optimallashtirish va barqarorlashtirishda valyuta operatsiyalaridan olinadigan daromadlarni har yili kamida 10 foizdan ortiq bo‘lishini ta’minalash taklifi ATB “Aloqabank” tomonidan amaliyatga joriy etilgan (“Aloqabank” ATBning 2023-yil 07 apreldagi 38-04/1139-son ma’lumotnomasi). Natijada, valyuta operatsiyalaridan olinadigan daromadlarni optimallashtirish banklarning umumiyl rentabelligini oshirgan.

tijorat banklarining spot operatsiyalarida sotib olingan xorijiy valyuta bilan sotilgan valyuta o‘rtasidagi spredning miqdori sotib olingan valyutaning valyuta qiymatining kamida 1 foizini tashkil etishi lozimligi taklifi ATB “Aloqabank” tomonidan amaliyatga joriy etilgan (“Aloqabank” ATBning 2023-yil 07-apreldagi 38-04/1139-son ma’lumotnomasi). Natijada, spred (ya’ni sotib olish va sotish narxi orasidagi farq) 1 foizdan kam bo‘lmasligi banklarga valyuta ayirboshlash operatsiyalaridan doimiy daromad olish imkonini yaratgan.

banklarda xorijiy valyutadagi investitsion loyihalarning texnik-iqtisodiy asoslarini aniqlashda va moliyalashtirish mexanizmida valyuta kursi omilini inobatga olish taklifi ATB “Aloqabank” tomonidan amaliyatga joriy etilgan (“Aloqabank” ATBning 2023-yil 07-apreldagi 38-04/1139-son ma’lumotnomasi). Natijada, valyuta kursi omilini investitsion loyihalarning texnik-iqtisodiy asoslarini aniqlashda va moliyalashtirishda inobatga olish banklarga yanada puxta risklarni boshqarish imkonini beradi, loyihalarning moliyaviy barqarorligini ta’minalashga

yordam berган.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 6 ta respublika miqyosida o'tkazilgan jami 9 ta ilmiy-amaliy konferentsiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot ishi mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy maqola va tezislar chop etilgan, jumladan: O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan mahalliy jurnallarda 6 ta, xorijiy jurnallarda 2 ta maqola chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanimanligi adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Tadqiqot hajmi 120 betni tashkil etgan.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'r ganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, tadqiqotning obyekti va predmeti, tadqiqot usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqotning amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchligi hamda ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiya va e'lon qilinishi hamda dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Tijorat banklari valyuta operatsiyalari nazariy va huquqiy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida valyuta munosabatlarni rivojlanishi va valyuta operatsiyalarining mazmun-mohiyati, tashqi iqtisodiy munosabatlardagi roli, valyuta operatsiyalarining tasniflanishi va tijorat banklarida valyuta operatsiyalarini amalga oshirishning huquqiy asoslari, valyuta operatsiyalarini tashkil etishning xorij tajribalari tadqiq etilgan. Dissertatsiya vazifalaridan kelib chiqqan holda tijorat banklari valyuta operatsiyalari nazariy-huquqiy va tashkiliy-iqtisodiy tizimini asoslariga talluqli nazariy natija va xulosalar shakllantirilgan.

Hozirgi kunda barcha mamlakatlar tashqi iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish va shu bilan birgalikda valyuta munosabatlarini muvofiqlashtirish, shakllantirish va takomillashtirishga harakat qilishmoqda. Mamlakatlarning iqtisodiy holati va boshqa omillar ularning valyuta munosabatlari faolligini oshirishga qiyinchiliklar tug'dirmoqda. O'zbekistonning jahon iqtisodiy integratsiyasida rivojlanishini ta'minlashda valyuta munosabatlarini shakllantirish, jahon iqtisodiga mos ravishda valyuta siyosatini yuritishni taqozo qilmoqda. Shu maqsadda mamlakatimizda valyuta munosabatini rivojlanirish, valyuta operatsiyalarini shakllantirish, valyuta siyosatining muhim vazifasi hisoblangan valyuta kursi barqarorligini, milliy valyuta qadrini oshirishni ko'zda tutuvchi ilmiy ishlar ustida faoliyat olib borilmoqda.

Xalqaro valyuta tizimi va milliy valyuta tizimi o'zaro bog'liqdir. Xalqaro

valyuta tizimi xalqaro valyuta munosabatlarini tartibga soluvchi tizim hisoblanadi. Xalqaro valyuta tizimi XIX asrda yuzaga kelgan bo‘lib mamlakatlar iqtisodiy holati, jahon iqtisodiyotining o‘zgarishi natijasida turli bosqichlarni bosib o‘tdi. Jahon iqtisodiyotida, uning tarkibidagi o‘zgarishlar, rivojlanishlar Xalqaro valyuta tiximining ham turlicha printsiplar va xarakterlarda amal qilishiga, takomillashishi va rivojlanishiga sabab bo‘lgan.

Zamonaviy XVTga 1976-yanvarda Kingston (Yamayka)dagi konferentsiyada asos solindi. Bu tizimning asosi erkin suzib yuruvchi almashuv kursi va ko‘p valyutaviy standartdir. Zamonaviy valyuta tizimi juda murakkabdir. Bunda yetakchi mamlakatlar valyuta kurslari talab va taklif asosida o‘rnatilsa, rivojlanayotgan mamlakatlarining ko‘pchiligi o‘z valyuta kurslarini yetakchi valyutalarga (asosan AQSh dollari yoki Evroga) nisbatan o‘rnatishadi. Ba’zi mamlakatlar valyuta kurslari «valyutalar savati»ga nisbatan o‘rnatiladi.

Hozirgi kunda milliy valyuta tizimini shakllantirish, milliy valyuta kursini barqarorligini ta’minalash borasida bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, valyuta rezervlarini ko‘paytirish maqsadida O‘zbekiston to‘lov balansini yaxshilash, eksportni oshirish, import o‘rnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqarishga qaratilgan loyihamalga oshirilmoqda.

Rivojlanayotgan davlatlar valyuta bozori asosan spot bozoridan tashkil topgan. Forvard va boshqa valyuta operatsiyalar esa, sust rivojlangan. Shuningdek, ayrim mamlakatlarda forward va svop bitimlarini tartibga solish amaliyoti mavjud bo‘lib, forward va svop bitimlarini tuzish qonuniy ruxsat etilgan. Bundan tashqari, forward va svop shartnomalarining miqdori va so‘ndirish muddatlari ham tartibga solish obyektiga aylantirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligidan so‘ng o‘tgan vaqt mobaynida bank sohasi rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar yaratildi. Tijorat banklarining faoliyati ushbu qisqa davrda kutilgandan ham unumliroq tarzda takomillashdi. Tijorat banklarining takomillashishiga sabab, O‘zbekiston Respublikasining jahon xo‘jaligidagi ishtiroki salmog‘i oshib, xalqaro iqtisodiy munosabatlar ko‘lamli kengayib borayotganadadir. Ma’lumki, valyuta operatsiyalari va ularni takomillashtirish masalalari xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ilmiy jihatdan o‘rganilgan va tadqiq qilingan. Xususan, valyuta munosabatlari, valyuta, valyuta operatsiyalari tushunchalarining iqtisodiy mohiyati taniqli olimlarning tadqiqotlarida o‘z ifodasini topgan.

Valyuta haqida mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan turli ta’riflar berib o‘tilgan. Ushbu qarashlarga yaqin bo‘lgan boshqa bir qator nazariy qarashlar ham o‘rganish natijasida shunday xulosaga kelindi. Bizning fikrimizcha “valyuta va pul bir xil mohiyatli tushunchalar, faqat pul mamlakat hududida foydalaniladi, valyuta halqaro miqyosda qo‘llaniladi”. Valyuta kursiga esa, yuqoridaq ta’riflardan kelib chiqib quyidagicha ta’rif berishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: Valyuta kursi bu – bir birlik chet el valyutasining milliy valyutadagi bahosi yoki aksincha, bir birlik milliy valyutaning boshqa bir chet el valyutasidagi bahosidir.

Valyuta operatsiyalari xorijiy valyutada hujjatlar va bitimlarni rasmiylashtirish hamda hisob-kitoblarni amalga oshirish bilan bog‘liq faoliyatdir. Valyuta operatsiyalarini mohiyatini o‘rganishda uning tasniflanishi muhim

ahamiyatga ega. Hozirgi kunda tijorat banklari valyuta operatsiyalarini quyidagicha guruhlarga ajratishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. Valyuta ayiraboshlash (konversiya) yoki valyuta oldi-sotdi operatsiyalari. Bu operatsiyalar valyuta dilingi ham deb ataladi. Hozirgi kunda valyuta ayiraboshlash operatsiyalarining asosiy qismi naqd pulsiz shaklda, hisob raqamlardagi mablag‘lar orqali amalga oshiriladi. Ayiraboshlash operatsiyalarini bitim qatnashuvchilarining o‘zлari yoki mijozlarning topshirig‘iga asosan banklar amalga oshiradilar.

2. Tijorat banklari tomonidan valyuta qimmatliklarini jalb qilish va joylashtirish bilan bog‘liq operatsiyalar, ya’ni depozit va kredit operatsiyalari.

3. Xalqaro hisob-kitob operatsiyalari. Bunda tijorat banklari tomonidan xorijiy banklarda vakillik hisob-raqamlarni ochgan holda o‘z mijozlarining tashqi kontragentlari bilan hisob-kitoblarini amalga oshirishida xizmat ko‘rsatiladi.

4. Notovar bitimlar bilan bog‘liq valyuta operatsiyalari (pul o‘tkazmalari, sayyohlarga xizmat ko‘rsatish, badallar, sovg‘alar, xayriyalar va hokazo).

5. Plastik kartochkalar bilan amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalari.

Yuqorida fikrlarni inobtaga olgan holda, tijorat banklari valyuta operatsiyalarini quyidagi guruhlarga bo‘linishi sifatida keltirishimiz mumkin:

**Valyuta ayiraboshlash (konvertsiya) yoki valyuta oldi-sotdi operatsiyalari**

**Depozit va kredit operatsiyalari**

**Xalqaro hisob-kitob operatsiyalari**

**Notovar bitimlar bilan bog‘liq valyuta operatsiyalari**

**Plastik kartochkalar bilan amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalari**

### **1-rasm. Tijorat banklari valyuta operatsiyalari tasniflanishi<sup>5</sup>**

O‘z navbatida, barcha valyuta qiymatliklari bilan amalga oshiriladigan valyuta almashuv operatsiyalari o‘z xarakteri va namoyon bo‘lish usuliga ko‘ra quyidagilarga bo‘linadi:

1. Spot tipidagi valyuta operatsiyalari;
2. Muddatli valyuta operatsiyalari:  
Forward tipidagi valyuta operatsiyalari;  
valyuta opsonlari bilan bog‘liq valyuta operatsiyalari;  
valyuta fyucherslari bilan amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalari;

<sup>5</sup>Muallif tomonidan tuzildi.

### 3. Svop tipidagi valyuta operatsiyalari.

Valyuta almashuv operatsilari valyuta pozitsiya talablariga rioya qilish lozim. Bankning valyuta pozitsiyasi deganda xorijiy valyutadagi talab va majburiyatlarining o‘zaro nisbati tushuniladi. Agar ma’lum bir valyuta turi bo‘yicha talablar summasi majburiyatlar summasidan yuqori bo‘lsa, bankning ushbu valyutaga nisbatan pozitsiyasi «uzun» deyiladi. Aksincha, majburiyatlar summasi talablar summasidan katta bo‘lsa, pozitsiya «qisqa» deyiladi. Agarda majburiyatlar summasi talablar summasiga teng bo‘lsa, bank bu valyuta bo‘yicha «yopiq» pozitsiyaga ega hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining «Valyutani tartibga solish to‘g‘risida»gi qonuniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki valyutani tartibga soluvchi davlat organidir.

Dissertatsiyaning “**Tijorat banklarida valyuta operatsiyalarini tashkil etilishi va amaldagi holati tahlili**” nomli ikkinchi bobida O‘zbekiston tashqi iqtisodiy munosabatlari, eksport import operatsiyalarining rivojlanishi, tijorat banklarida xorijiy valyutadagi aktivlari, depozitlari, majburiyatlar hajmi va tarkibi dinamikasi hamda valyuta operatsiyalari hajmi va tarkibi tahlil qilinga. Shuningdek, valyuta operatsiyalarini rivojlantirishga ta’sir qiluvchi omillarning ekonometrik tahlili amalga oshirilgan.

Bank tizimidagi va valyuta bozorini rivojlantirish borasida olib borilgan islohotlar natijasida birjadan tashqari valyuta bozoridagi operatsiyalar hajmi o‘sdi, banklar konvertatsiya operatsiyalarini amalga oshirishda katta mustaqillikka ega bo‘ldi, tashqi savdo operatsiyalarida ishtirok etuvchi mijozlar davrasi kengaydi. Hozirgi kunda banklarning tashqi iqtisodiy faoliyatining ko‘pgina yo‘nalishlarida ijobiy natijalarga erishildi. Tashqi iqtisodiy savdoning erkinlashishi hamda alohida korxona va banklarning tashqi bozorlarga chikish bilan valyuta operatsiyalari ko‘lамиni oshishi banklarda valyuta operatsiyalarini rivojlantirishga asos bo‘ldi.

#### 1-jadval

#### O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasida eksport va import<sup>6</sup>

Ko‘rsatkichlar	2019	2020	2021	2022	2023	2024
<b>Tashqi savdo aylanmasi, mln. AQSh doll.:</b>	<b>41 751,0</b>	<b>36 256,1</b>	<b>42 170,5</b>	<b>50 500,3</b>	<b>63 528,6</b>	<b>65 934,0</b>
Eksport	17 458,7	15 102,3	16 662,8	19 732,6	24 869,5	26 948,2
Import	24 292,3	21 153,8	25 507,7	30 767,8	38 659,1	38 985,8
<i>savdo balansi saldosi</i>	-6 833,6	-6 051,5	-8 844,9	-11 035,2	-13 789,6	-12 037,6
<b>Tashqi savdo aylanmasi o‘sishi, o‘tgan yilga nisbatan, % da:</b>	<b>124,9</b>	<b>86,8</b>	<b>116,3</b>	<b>119,8</b>	<b>125,8</b>	<b>103,7</b>
Eksport	124,8	86,5	110,3	118,4	126,0	108,4
Import	125,0	87,1	120,6	120,6	125,6	100,9

2019-2024 yillaragi O‘zbekiston tashqi savdo hajmini ko‘radigan bo‘lsak, uning keskin oshayotganligini kuzatishimiz mumkin. 1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki O‘zbekistonning tashqi savdo aylanmasi yildan yilga oshib bormoqda. 2019 yilda tashqi savdo 41751,0 mln. AQSh dollarini tashkil qilgan

<sup>6</sup>www.stat.uz. - O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzild.

bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 65934,0 mln. AQSh dolarni tashkil qilgan yoki 5 yilda 1.58 martaga (58% ga) oshgan. 2020-yilda tashqi savdo hajmi pandemiya natijasida pasayganligini ham ta’kidlash lozim. 2019-2024-yillarda eksport hajmi 54,4%ga oshgan bo‘lsa, import hajmi 60,5%ga oshgan.

Eksport va import rivoji ham valyuta kursi tasiri ostida qoldi. Shu munosabat bilan jahon savdosiga valyuta bozori tasiri mexanizmlarini hamda uni zamonaviy sharoitda takomillashtirish xususiyatlarini o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, so‘mning xarid qilish qobiliyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida nafaqat valyuta operatsiyalarini takomillashtirish va mavjud valyuta zahiralarining ishlatalish samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan, balki Respublikaning iste’mol bozorini yuqori sifatlari tovarlar bilan tuyintirish, chet el sarmoyasini jalb qilishni rag‘batlantirish, o‘zimizning raqobatbardosh mahsulotlarimizni ishlab chiqarishni rivojlantirish va eksport hajmining kengaytirilishiga qaratilgan bir qator chora tadbirlar o‘tkazilmoqda. Tashqi savdoda mamlakatlar tarkibini o‘rganish muhim masalalardan hsoblanadi. Tashqi savdo ulushi yuqori bo‘lgan mamlakatalar bilan hisob-kitobni uchinchi valyutada olib bormaslik, valyuta bilan bog‘liq xarajatlarni kamaytirishga zamin hsoblanadi.

Tashqi savdo tarkibida chuqur ijobiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Jumladan, keyingi yillar mobaynida eksport tarkibida raqobatbardosh tayyor mahsulot salmog‘ining barqaror o‘sish tendensiyasi va xomashyo yetkazib beruvchi tarmoqlar mahsulotlari ulushining kamayib borayotgani yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. 2024-yilda umumiyligi eksport hajmida tayyor maxsulotlarning ulushi 70 foizni tashkil etdi holbuki, 2018-yilda bu ko‘rsatkich qariyb 56 foizni tashkil etgan edi.

O‘zbekiston Respublikasi valyuta birjasidagi valyuta savdolari tugrisidagi ma’lumotlarni ko‘radigan bo‘lsak, tijorat banklarining valyuta birjasi orqali amalga oshirilgan valyuta ayiraboshlash hajmi yildan yilga o‘sayotganligini kuzatishimiz mumkin.

**2-jadval**  
**O‘zbekiston Respublikasi valyuta birasi valyuta savdosi aylanmasi dinamikasi,**  
**mln. AQSh dollarari<sup>7</sup>**

Ko‘rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024	O‘sish surati, 4 yilda, %	O‘rtacha yillik o‘sish surati, %
Tijorat banklari tomonidan sotib olingan chet el valyutasi hajmi	11706.4	9773,5	14195.2	18861.9	17801.8	152,1	111,0
Tijorat banklari tomonidan sotilgan chet el valyutachi hajmi	6470.6	3048	6403.8	6432.3	7365.7	113,8	103,3

2-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki O‘zbekistonning valyuta savdosi aylanmasi yildan yilga o‘sib bormoqda. Tijorat banklari tomonidan sotib olingan chet el valyutasi hajmi 2020-yilda 11706.4 mln. AQSh dollaridan 2024-yilga kelib

<sup>7</sup>www.stat.uz. - O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzild.

17801.8 mln.AQSh dollarga yoki 52,1 foizga oshgan. Bu o'sishni o'rtacha yillik miqdori 11,0 foizni tashkil qilgan. Tijorat banklari tomonidan sotilgan chet el valyutasi hajmi 2020-yilda 6470.6 mln.AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lsa 2024-yilda 7365.7 mln.AQSh dollarini tashkil qilib 2020-yilga nisbatan 1,14 martaga oshgan.

Valyuta liberallashuvidan keyingi yillarda jismoniy shaxslarning chet el valyutasini sotish va sotib olishga bo'lgan talabini o'sishini hisobga olgam holda, shuningdek, aholi va xorijiy sayyoohlarga qulayliklar yaratish maqsadida valyuta operatsiyalari uchun infratuzilma yanada rivojlantirildi.

### 3-jadval

#### **O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslardan sotib olingan va ularga sotilgan chet el valyutasi hajmi dinamikasi, mln. AQSh dollari<sup>8</sup>**

Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024	O'sish surati, 4 yilda, %	O'rtacha yillik o'sish surati, %
Jismoniy shaxslar tomonidan sotilgan chet el valyutasi hajmi	4607,8	7074,4	11887,7	12340.1	16108.2	349,6	136,7
Jismoniy shaxslar tomonidan sotib olingan chet el valyutasi hajmi	4126,1	4612,8	8934,4	9140.7	9389.0	227,6	122,8

3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki aholi tomonidan sotib olingan chet el valyutasi hajmi 2020 yildagi 4126.1 mln. AQSh dollaridan 2024 yilga kelib 9389.0 mln.AQSh dollarga yoki 2.1 barobarga oshgan. Bu o'sishni o'rtacha yillik miqdori 20,0 foizni tashkil qilgan. Jismoniy shaxslar tomonidan sotilgan chet el valyutasi hajmi 2020 yilda 4607.8 mln.AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lsa 2024 yilda 16108.2 mln.AQSh dollarini tashkil qilib 2020 yilga nisbatan 4 martaga oshgan. Jismoniy shaxslar bilan tijorat banklari ortasidagi valyuta ayirboshlash operatsiyalar aylanmasi hajmi 2024 yilga kelib 25,5 mlrd dollarni tashkil etdi. Bu jadval ma'lumotlaridan aholining bank valyutasiga bolgan talabni taminlashda aholining valyutasi muhim orinni egallamoqda. 2024 yilda tijorat banklariga aholidan qo'shimcha ravishda 6,7 mlrd. AQSh dollari valyuta tushumi yuzaga kelgan.

Valyuta ayirboshlash operatsiyalarida sotish va sotib olish kursini belgilash muhim hisoblanadi. Valyuta kursini tijorat banklari va markaziy bank turli usullar bilan belgilaydi.

Tijorat banklari valyuta savdosi (ayirboshlash)da asosan spot kursidan foydalanadi. Spot kursi sotib olish kursi (bank aholidan valyuta xarid qiladigan kurs) va sotish kursi (bank aholiga valyuta sotadigan kurs) dan iborat.

Spot kursini belgilovchi omillar quyidagilar hisoblanadi:

1. Markaziy bank rasmiy kursi – asosiy ko'rsatgich.
2. Bozordagi talab va taklif – aholi va korxonalar valyutani qanchalik sotmoqda yoki sotib olmoqda.

<sup>8</sup>www.stat.uz. - O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzildi

3. Ochiq pozitsiya limitlari va valyutaning bank portfeli – bank valyutaning qoldig‘ini nazorat qilish uchun spredni belgilaydi.

4. Xarajat va risk – har bir spot operatsiyada bank foyda va riskni hisoblaydi.

5. Taklif qilinayotgan normativ – masalan, spred kam bo‘lmasligi kerakligi (sotib olingan valyutaning kamida 1% ichida).

Spred – bankning foyda va riskni hisobga olgan holda belgilanadi. Masalan, agar dollarni bank 12 000 so‘mdan sotib olsa, spred kamida 1% bo‘lishi mumkin, яъни, sotish kursi  $\approx$  12 120 so‘m.

Tijorat banklarida spot kurs quyidagicha aniqlanadi.

1. Markaziy bank rasmiy kursi olinadi.

2. Tijorat bank bozordagi talab/taklifni baholaydi.

3. Bank spred qo‘sadi (foyda + risk).

4. Axirgi kurs aholi uchun sotib olish va sotish kursi sifatida e’lon qilinadi.

Misol bilan spot kurs hisob-kitobini ko‘rib chiqamiz.

Markaziy bank rasmiy kursi: 1 USD = 12 000 so‘m

Bank spredi: 1% (sotib olingan valyuta qiymati asosida)

Bank oylik ochiq valyuta pozitsiyasi va bozor talabini hisobga oladi (misolda oddiy qilib olamiz)

Spred = Rasmiy kurs  $\times$  Spred %

Spred =  $12\ 000 \times 1\% = 12\ 000 \times 0.01 = 120$  so‘m

Tijorat bank kursi (axolī uchun)

Sotib olish kursi (bank aholidan valyuta xarid qiladi)

Rasmiy kurs – spred/2 (bank ozgina foyda oladi):

Sotib olish kursi  $\approx 12\ 000 - 60 = 11\ 940$  so‘m

Sotish kursi (bank valyuta sotadi)

Rasmiy kurs + spred/2:

Sotish kursi  $\approx 12\ 000 + 60 = 12\ 060$  so‘m

Bu yerda spred butunlay 1% ga teng, ya’ni sotib olish va sotish kursi orasidagi farq = 120 so‘m.

Demak bank aholidan 11 940 so‘m / USD kurs bilan dollar xarid qiladi, 12 060 so‘m / USD kurs bilan dollarni sotadi.

Foyda (1 USD ga):  $12\ 060 - 11\ 940 = 120$  so‘m ni tashkil qiladi. Shu tariqa bank har bir operatsiyada spreddan minimal foyda oladi va valyutaning kurs xavfini ham hisobga oladi. Ochiq valyuta pozitsiyasi ko‘p bo‘lsa, bank spredni kattaroq qo‘yishi mumkin. Bozorda talab yuqori bo‘lsa, bank sotish kursini yuqoriroq qo‘yadi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, sotib olish va sotish kursi rasmiy kurs va spred miqdori orqali hisoblanadi. Taklif qilinayotgan 1 foiz miqdoridagi Spred miqdori bankning minimal foyda va risk xavfini qoplaydi.

Aholining valyuta mablaglarini banklarga sotishi bankka daromad keltirishi bilan birga mamlakat oltin-valyuta zahiralarini barqarjrligini va natijada valyuta kursi barqarorligini taminlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bozor munosabatlarining rivojlanishini hisobga olib, umuman keltirilgan hamma ma’lumotlarni tahlil qilsak, bizning respublikada tijorat banklarining valyuta operatsiyalarini rivojlanish istiqbollari yetarlidir.

O‘zbekiston tijorat banklari valyuta operatsiyalarini quyidagicha tahlil qilishni maqsadga muvofiqdir. Tahlilning ilk bosqichida biz tahlil qilinayotgan davr uchun valyuta aktivlari, depozitlari, kreditlari hajmini, shuningdek, uning jami aktivdagi ulushini aniqlaymiz va tahlil qilinayotgan davr uchun valyuta aktivlari ulushining dinamikasini baholaymiz. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari valyuta aktivlari hajmining o‘zgarishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar 4-jadvalda keltirilgan.

#### 4-jadval

#### O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari aktivlari hajmi o‘zgarishi<sup>9</sup>

Ko‘rsatkichlar	01.01.21	01.01.22	01.01.23	01.01.24	01.01.25	O‘sish surati, 4 yilda, %	O‘rtacha yillik o‘sish surati, %
Aktivlarning umumiyligi, mln.so‘m	366121,1	444922,5	556 746,3	652157,1	769330,4	210,1	120,4
Chet el valyutasidagi aktivlarning umumiyligi, mln. so‘m	183927,2	215414,6	264550,7	291790,8	316440,0	172,0	114,5
Chet el valyutasidagi aktivlarning umumiyligi aktiv qiyamatiga nisbati, %	50,2	48,4	47,5	44,7	41,1		

4-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil boshida jami aktivlar 2021-yilga nisbatan 210,0 foizga, o‘rtacha yillik 120,4 foizga o‘sishi kuzatilmoxda. Chet el valyutasidagi aktivlar esa 172,0 foizga, o‘rtacha yillik 114,5 foizga oshgan. Valyutadagi aktivlarning o‘sishini ijobjiy baholash mumkin, chunki bu likvid aktivlarning (kassadagi chet el valyutasi, korschettalar va boshqalar) o‘sishini ko‘rsatadi. 2021-2024-yillarda bankdagi valyuta aktivlarining o‘sishi nafaqat valyuta operatsiyalari hajmining o‘sishi, balki so‘mning AQSh dollari va yevroga nisbatan kursini o‘zgarishi sababli valyuta hisobvaraqlarining qayta baholanishi bilan bog‘liq edi.

#### 5-jadval

#### O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari depozitlari hajmi dinamikasi<sup>10</sup>

Ko‘rsatkichlar	01.01.21	01.01.22	01.01.23	01.01.24	01.01.25	O‘sish surati, 4 yilda, %	O‘rtacha yillik o‘sish surati, %
Depozitlarning umumiyligi, mln.so‘m	114746,9	156189,8	216737,5	241686,6	308692,3	269,0	128,1
Chet el valyutasidagi depozitlarning umumiyligi, mln. so‘m	49428,5	60611,7	84942,7	72170,9	77458,0	156,7	111,9
Chet el valyutasidagi depozitlarning umumiyligi depozit qiyamatiga nisbati, %	43,1	38,8	39,2	29,9	25,1		

<sup>9</sup> Jadval muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma’lumotlari asosida tuzilgan.

<sup>10</sup> Jadval muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma’lumotlari asosida tuzilgan.

O‘zbekiston tijorat banklarining xorijiy valyutadagi depozit operatsiyalarini tahlil qilishda jami depozitlar, xorijiy valyutadagi depozitlar hajmi dinamikasi va salmog‘ini o‘rganish muhimdir. Oxirgi yillarda xorijiy valyutadagi depozitlar uchun foiz stavkalarining pasayishi ularni salmog‘ini pasayishiga olib kelmoqda. Bank depozitlari va xorijiy valyutadagi depozitlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar tahlilini quyidagi jadvalda kuzatishimiz mumkin.

Bu tijorat banklarining xorijiy valyutadagi operatsiyalar ulushini kamaytirish bo‘yicha olib borgan siyosati natijasi bilan bog‘liq. Bundan tashqari, 2021-2024-yillarda xorijiy valyuta kreditlarning ulushini kamayishi munosabati bilan valyuta depozitlari stavkalari pasaydi, ya’ni valyuta depozitlari bo‘yicha stavkalarning pasayishi aktivlar va passivlarni muvozanatlashga qaratilgan edi.

#### **6-jadval**

#### **O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlari hajmi o‘zgarishi<sup>11</sup>**

Ko‘rsatkichlar	01.01.21	01.01.22	01.01.23	01.01.24	01.01.25	O‘sish surati, 4 yilda, %	O‘rtacha yillik o‘sish surati, %
Kreditlarning umumiyligi, mln.so‘m	276974,8	326385,6	390048,9	471405,5	533121,2	192,5	117,8
Chet el valyutasidagi kreditlarning umumiyligi, mln.so‘m	138106,4	162662,7	185118,3	212030,5	228718	165,6	113,4
Chet el valyutasidagi kreditlarning umumiyligi kreditdagi ulushi, %	49,9	49,8	47,5	45,0	42,9		

Bank kreditlari umumiyligi hajmi va xorijiy valyutadagi kreditlar hajmini tahlil qiladigan bo‘lsak, umuman olganda kredit va valyutadagi kredit hajmi oshganini kuzatishimiz mumkin, lekin valyutadagi kreditlarning jami kreditdagi ulushi pasayganligi kuzatiladi.

Quyidagi jadvalda valyuta operatsiyalarining rivojlanish koeffitsiyenti dinamikasi keltirilgan. Bu ko‘rsatkich bankda valyuta opearatsiyalari faolligini oshganligini baholaydi. Agar bu ko‘rsatkich musbat bo‘lsa valyuta opearatsiyalari bankda faol ekanligi hamda xorijiy valyutadagi aktivlar o‘sishi yuqori darajada ekanligidan dalolat beradi.

#### **7-jadval**

#### **O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari valyuta operatsiyalari rivojlanish koeffitsiyenti<sup>12</sup>**

Ko‘rsatkichlar	2021	2022	2023	2024	O‘sish surati, 4 yilda,	O‘rtacha yillik o‘sish surati
Aktivlarning o‘sish koeffitsiyenti	1,215	1,251	1,171	1,180	2,101	1,204 (20,4%)
Chet el valyutasidagi aktivlarning o‘sish koeffitsiyenti	1,171	1,228	1,103	1,084	1,720	1,145 (14,5%)
Chet el valyutasidagi ilgarilash koeffitsiyenti	0,964	0,981	0,942	0,919	0,819	0,951 (-4,9%)

<sup>11</sup> Jadval muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma’lumotlari asosida tuzilgan.

<sup>12</sup> Jadval muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinyaptiki 2021-2024-yillarda jami aktivlar hajmi ham, chet el valyutasidagi aktivlar hajmi ham o'sish tendensiyastiga ega. Ilgarilash koeffitsiyentiga e'tibor qaratsak 2021-2024-yillarda xorijiy valyutadagi aktivlar o'sish surati aktivlar o'sish suratiga nisbatan past bo'lgan. O'rtacha yillik ilgarilash koeffitsiyenti -4,9 foizni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich valyuta operatsiyalarini kamayganini aks ettiradi. Umuman olganda 2021-2024 yillarda bank aktivlarining o'sish sur'ati valyuta aktivlarining o'sish sur'atlaridan oshib ketdi. Yuqorida aytib o'tilganidek, bu O'zbekiston tijorat banklarini bank islohotlarida nazarda tutilganidek xorijiy valyutaga ehtiyojni kamaytirish, shuningdek, valyuta kursi bilan bog'liq risklarni kamaytirish bilan bog'liq.

Xulosa qilib aytish mumkinki, yuqorida tijorat banklari valyutadagi aktivlari, kreditlari, depozitlari va uning ulushini tahlili natijasida olingan ma'lumotlarga ko'ra shuni aytish mumkinki, valyutadagi aktivlar va passivlar ulushi jami aktiv va passivlardagi pasayishi kuzatilmoxda. Valyutadagi aktivlarning o'sishi valyuta bozorida bank faoliyatining oshishi bilan bog'liq. Valyuta bozorlarida banklarning valyuta operatsiyalarini rivojlantirishda valyuta kurslarini, valyuta almashuvi operatsiyalarini, valyutada depozit va kredit operatsiyalarini hamda valyutada hisob-kitoblarni amalga oshirishni takomillashtirishni taqozo qiladi. Bu bank faoliyatida valyuta risklarini kamaytirishga hamda valyuta operatsiyalaridan daromadlarini oshirishga xizmat qiladi.

AT "Aloqabank" yillik moliyaviy hisobotlarini tahlil qilish orqali tijorat bank misolida valyuta operatsiyalari amaldagi holati o'rganishimiz mumkin. AT "Aloqabank"ning xorijiy valyutadagi depozitlarini tahlil qilish orqali quyidagilarni kuzatishimiz mumkin.

#### 8-jadval

#### AT "Aloqabank" depozitlari dinamikasi<sup>13</sup>

Ko'rsatkich	01.01.2021	01.01.2022	01.01.2023	01.01.2024	01.01.2025	O'rtacha yillik o'sishi, %
Depozit jami, mlrd.so'm	4 924,10	6 796,10	7 697,70	9 227,04	13 814,67	29,4
Xorijiy valyutadagi depozit, mlrd. so'm	1 711,70	2 044,30	1 519,30	1 457,46	1 503,77	-3,2
Xorijiy valyutadagi depozit ulushi, %	34,8	30,1	19,7	15,8	10,9	

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan bankning depozit hajmi o'sganligi bilan xorijiy valyutadagi depozitlar hajmi pasaygan. Shuningdek, xorijiy valyutadagi depozitlar ulushi ham pasaygan.

AT "Aloqabank"ning xorijiy valyutadagi kreditlari tahlilini ko'ramiz. Bunda kreditlar hajmi 2020–2025-yillarda o'rtacha 22,7 foizga oshirilishiga erishilgan, natijada bankning kredit portfeli 2025-yilning 1-yanvar holatiga 12944,27 mlrd so'mni tashkil etgan. Xorijiy valyutalardagi kredit hajmi ham o'rtacha 18,9 foizga oshgan bo'lib, 2025-yilning 1-yanvar holatiga 3837,61 mlrd so'mni tashkil qilgan. Xorijiy kreditlarning ulushi 33,6 fozdan 29,6 foizga

<sup>13</sup> Jadval muallif tomonidan AT "Aloqabank" bankining hisobot ma'lumotlari asosida tuzilgan.

kamaygan. Investitsion loyhalarni hajmi esa 4,0 foizga oshgan bo‘lib, ularning ulushi pasayganligini kuzatishimiz mumkin.

## 9-jadval

### AT “Aloqabank” kreditlari dinamikasi<sup>14</sup>

Ko‘rsatkich	01.01.2021	01.01.2022	01.01.2023	01.01.2024	01.01.2025	O‘rtacha yillik o‘sishi, %
Kredit jami, mlrd.so‘m	5 705,90	7 754,30	9 161,90	10 293,93	12 944,27	22,7
Xorijiy valyutadagi kredit, mlrd.so‘m	1 919,50	2 946,90	3 519,80	3 819,12	3 837,61	18,9
Xorijiy valyutadagi kredit ulushi, %	33,6	38,0	38,4	37,1	29,6	
Xorijiy valyutadagi investitsion kredit (yoki uzoq muddatli), mlrd.so‘m	1 285,90	1 874,60	2 069,30	1 650,65	1 506,35	4,0
Xorijiy valyutadagi investitsion kredit ulushi, %	67,0	63,6	58,8	43,2	39,3	

Xorijiy valyutadagi investitsion loyihalarni samaradorligini ta’minlashda loyihaning iqtisodiy ko‘rsatkichlari bilan birgalikda valyuta kursini hisobga olish muhim hisoblanadi. 2001, 2002, 2017 yillarda mamlakat valyuta siyosatida amalga oshirilgan devolvatsiyalar tijorat banklarining investitsion loyihalarini yuqori valyuta kursidan zarar ko‘rishiga hamda muammoli kreditlarni yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. Bunda 01.05.2000 yilda 1 AQSh dollarining rasmiy kursi 149,38 so‘mdan 231,00 so‘mga (54,6%ga) oshirilgan, 01.11.2001 yilda esa 433,70 so‘mdan 680,90 so‘mga (57,0%ga) oshirilgan, 05.09.2017 yilda esa 4210,35 so‘mdan 8100,00 so‘mga (92,4%ga) oshirilgan.

Investitsion loyihalarda valyuta kursi ta’siri juda muhim, chunki tushumlar, xarajatlar, kreditlar va uskuna importi ko‘pincha turli valyutalarda bo‘ladi. Valyuta kursi o‘zgarishi loyihaning NPV, IRR, va risk darajasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiladi. Valyuta kursining investitsion loyihalarga asosiy ta’sir yo‘nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

1. Kredit va foiz to‘lovlariga ta’sir. Kredit xorijiy valyutada bo‘lsa, valyuta kursi oshsa, kredit narxi qimmatlashadi, kredit va foiz qaytarish summasi oshadi. Loyiha byudjeti o‘zgarib, NPV pasayishi mumkin.

2. Operatsion xarajatlarga ta’sir. Xom ashyo, servis, ehtiyyot qismlar import bo‘lsa, kurs o‘sishi natijasida xarajatlar oshadi. Mahsulot narxini ko‘tarib bo‘lmasa, foyda kamayadi.

3. Daromadlarga ta’sir. Tushum qaysi valyutada ekaniga qarab natija farq qiladi. Agar tushum chet el valyutasida bo‘lsa: Kurs oshishi natijasida maxalliy valyutadagi daromad ko‘payadi loyiha quvvatlanadi. Agar tushum milliy valyutada bo‘lsa, kurs oshishi natijasida xarajatlar oshadi, foyda kamayadi. Xulosa qiladigan bolsak, valyuta kursining volatilligi, ya’ni o‘zgarishi qancha baland bo‘lsa,

<sup>14</sup> Jadval muallif tomonidan AT “Aloqabank” bankining hisobot ma’lumotlari asosida tuzilgan.

investitsiya samaradorligi shuncha xavfli va past bo‘ladi.

Investitsion loyihalarda valyuta kursi tasirini quyidagicha baholash maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- 1) Dastlab hozirgi kursdagi loyiha hisob-kitobi amalga oshiriladi.
- 2) Keyin 2 xil valyuta kursi bo‘yicha prognozi o‘rganiladi.

Kurs tushsa xarajatlar kamayishi va Kurs oshsa xarajatlar oshishi. Shu ikki holatda ham investitsion loyiha samaradorlikka erishsa xorijiy valyutadagi kreditlarning risk darajasi pasayadi.

Investitsion loyihalarda valyuta riskni kamaytirish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

Forvard/fyuchers shartnomalarini tuzish;

Valyuta svoplaridan foydalanish;

Valyuta depozitlarini qo‘yish;

Valyuta kursi tahlilini amalga oshirish, kursga ta’sir etuvchi faktorlarni organish orqali kelgusidagi valyuta kursini prognoz qilish.

Xulosa qiladigan bolsak, valyuta kursi investitsion loyihaning kapital xarajatlari, operatsion xarajatlari, tushumlari, kredit qaytarishi va loyihaning umumiyligi kuchli ta’sir qiladi. Shuning uchun har bir loyiha valyuta risklari bo‘yicha senariy modellari va stress-testlar bilan baholanishi kerak.

AT “Aloqabank”ning xorijiy valyuta operatsiyalaridan olinadigan daromadini tahlil qilish asosida bankning valyuta operatsiyalaridan olingan daromad hajmi 2020-2022 yillarda 2 martaga yoki yiliga o‘rtacha 46,2 foizga oshganligini kuzatishimiz mumkin.

#### **10-jadval**

#### **AT “Aloqabank” daromadlari dinamikasi<sup>15</sup>**

Ko‘rsatkich	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil	O‘zgarishi, %
Jami foizli daromad, mlrd.so‘m	1 185,90	1 206,70	1 499,50	1 862,04	2 249,38	17,4
Jami foizsiz daromad, mlrd.so‘m	294,50	427,20	836,10	1 530,21	1 865,50	58,6
Valyutadagi operatsiyalaridan daromad, mlrd.so‘m	84,50	83,00	180,50	132,78	191,88	22,8
Valyutadagi operatsiyalaridan daromad ulushi, %	28,7	19,4	21,6	8,7	10,3	

Jadval ma’lumotlariga asosan, bankning valyuta operatsiyalaridan olingan daromad hajmi 2020–2024-yillarda 2 martaga yoki yiliga o‘rtacha 22,8 foizga oshganligini kuzatishimiz mumkin.

Bundan xulosa qiladigan bo‘lsak, jadval ma’lumotlarida bankda valyuta operatsiyalarini rivojlanganligi va uning bank xizmatlaridagi hissasi ortib borayotganligidan dalolat beradi.

Tijorat banklarining aktivlarini o‘sishi va xorijiy valyutadagi aktivlarning

<sup>15</sup> Jadval muallif tomonidan AT “Aloqabank” bankining hisobot ma’lumotlari asosida tuzilgan.

osishi banklarda aktivlardan daromadlarning o'sishi bilan birligida valyutadan ham daromadini o'sishini kuzatishimiz mumkin. AT "Aloqabank" misolida bank aktivlari, shuningdek, xorijiy valyutadagi aktivlari o'rtacha o'sish darajasi 20 foizdan yuqori bo'lgan. Demak, valyutadan daromadi ham mos ravishda o'sishi ta'minlanadi. Buni yuqoridagi ma'lumotlardan kuzatishimiz mumkin. O'zbekiston bank tizimi ma'lumotlari asosida tahlil qiladigan bo'lsak yillik aktivlarni o'sish darajasi ham 20 foizdan yuqori. Shu sababli banklarning valyuta daromadlarini ham kamida 10 foizga oshishi ta'minlanadi. Xulosa qiladigan bo'lsak, AT "Aloqabank" aktivlari, kreditlari va depozitlari tarkibida xorijiy valyutadagi aktivlar kreditlar hamda depozitlar ulushi yildan yilga pasayib bormoqda. Bunga asosiy sabab valyutadagi risklarni kamaytirish hamda xorijiy valtyutaga ehtiyojini kamaytirish hisoblanadi. Lekin valyuta operatsiyalaridan daromadlarni oshganligi bankda valyuta operatsiyalari bo'yicha xizmatlr ko'rsatish salmog'i oshganligidan dalolat beradi.

Tijorat banklarining valyuta operatsiyalarini rivojlantirishda ekonometrik tahlil bugungi kunda dolzarb masalalardan hisoblanadi. Buning uchun valyuta operatsiyalarini har bir turi va unga ta'sir etuvchi faktorlar to'g'risida ma'lumotlar matematik-statistik usullar, maxsus dasturlar yordamida qayta ishlanadi, modellar tuziladi, baholanadi va xulosa beriladi.

### 11-jadval

#### AT "Aloqabank" muddatli valyuta operatsiyalari va ularga ta'sir etuvchi omillar<sup>16</sup>

	Ko'rsatkichlar	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
1.	Bankning muddatli valyuta operatsiyalari hajmi, mlrd.so'm	21,5	6,6	12,3	39,4	73,8	87,1	94,6	108,3	112,5	126,4
2.	Inflyatsiya darajasi, foizda	6,1	5,6	5,7	14,4	14,3	15,2	11,1	10,0	12,3	8,8
3.	Milliy valyutaning AQSh dollariga nisbatan devalvatsiya sur'ati, foizda	10,0	16,0	15,0	92,4	2,7	14,0	10,2	3,4	3,6	9,9
4.	Milliy valyutadagi kreditlari-ning o'rtacha yillik foiz stavkasi, foizda	12,5	11,4	11,5	18,5	20,5	24,2	22,2	21,3	22,2	22,9
5.	Xorijiy valyutadagi kreditlari-ning o'rtacha yillik foiz stavkasi, foizda	6,0	5,0	5,6	5,6	5,7	7,0	6,9	6,6	6,8	9,0
6.	Eksport, mlrd. doll.	13,5	12,5	12,1	12,6	14,0	17,5	15,1	16,7	19,7	24,9
7.	Import, mlrd. doll.	14,0	12,4	12,1	14,0	19,4	24,3	21,2	25,5	30,8	38,7

Tijorat banklari muddatli valyuta operatsiyalari hajmiga ta'sir qiluvchi omillarning ta'sir darajasiga baho berish maqsadida ekonometrik tahlil o'tkazamiz. Bunda AT "Aloqabank" valyuta operatsiyalariga tasir qiluvchi omillar sifatida makroiqtisodiy korsatkichlarni tanlab oamiz. Bu malumotlarni AT "Aloqabank" yillik hisobot ma'lumotlaridan hamda Ozbekiston Respublikasi Markaziy banki

<sup>16</sup> Jadval muallif tomonidan AT "Aloqabank"ning hisobot ma'lumotlari va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma'lumotlari asosida tuzilgan.

statistik malumotlaridan foydalanamiz. Mazkur ekonometrik tahlil ko‘p omilli regression va korrelyatsion usulda 2014-2023 yillar ma’lumotlari asosida amalga oshirildi.

Bog‘liqliklarni o‘rganish uchun amalga oshirilgan korrelyatsion tahlilda natijaviy bekgi va omil belgilar sifatida quyidagilarni belgilashlarni amalga oshiramiz. Bunda, natijaviy belgi – Y:

*AS* - AT “Aloqabank” muddatli valyuta operatsiyalari hajmi, mlrd. so‘m;

Omil belgilar:

*X<sub>1</sub>* - *IF*- Inflyatsiyaning yillik darajasi, foizda;

*X<sub>2</sub>* – *DV* - So‘mning AQSh dollariga nisbatan yillik o‘zgarish sur’ati, foizda;

*X<sub>3</sub>*- *MKF*- Milliy valyutadagi kreditlarning o‘rtacha yillik foiz stavkasi, foizda;

*X<sub>4</sub>*- *XKF*- Xorijiy valyutadagi kreditlarning o‘rtacha yillik foiz stavkasi, foizda;

*X<sub>5</sub>*- *EX* – Eksport hajmi, mlrd.dollar

*X<sub>6</sub>*- *IM* – Import hajmi, mlrd.dollar

Barcha ma’lumotlarni ekonometrik tahlil qilish uchun Eviews dasturidan foydalanamiz. Bu dastur ko‘p omilli regression va korreliyatsion tahlilni amalga oshirshda amaliyotda va ilmiy tadqiqtlarda ko‘p qo‘llaniladi. Dastlab barcha ma’lumotlarni Eviews dasturiga yuklaymiz va tahlilni amalga oshiramiz. Bu dastur asosida avvalo korrelyatsion bog‘liklikni baholaymiz.

## 12-jadval

Korrelyatsion bog‘liqlik jadvali

	<b>Y</b>	<b>X<sub>1</sub></b>	<b>X<sub>2</sub></b>	<b>X<sub>3</sub></b>	<b>X<sub>4</sub></b>	<b>X<sub>5</sub></b>	<b>X<sub>6</sub></b>
<b>Y</b>	1,000	0.6847	-0.2595	0.9340	0.8710	0.8348	0.9461
<b>X<sub>1</sub></b>	0.6847	1,000	0.2962	0.8747	0.5329	0.4827	0.5819
<b>X<sub>2</sub></b>	-0.2595	0.2962	1,000	-0.0461	-0.2705	-0.4030	-0.3665
<b>X<sub>3</sub></b>	0.9340	0.8747	-0.0461	1,000	0.8266	0.7562	0.8497
<b>X<sub>4</sub></b>	0.8710	0.5329	-0.2705	0.8266	1,000	0.8015	0.8386
<b>X<sub>5</sub></b>	0.8348	0.4827	-0.4030	0.7562	0.8015	1,000	0.9580
<b>X<sub>6</sub></b>	0.9461	0.5819	-0.3665	0.8497	0.8386	0.9580	1,000

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, muddatli valyuta operatsiyalar hajmini o‘zgarishiga deyarli barcha omillar ta’sir qilmoqda (so‘mning AQSh dollariga nisbatan kursini o‘garishidan tashqari). Ayniqsa, kreditning o‘rtacha foiz stavkasi va import hajmi bilan muddatli valyuta operatsiyalar hajmi o‘rtasidagi bog‘liqlik juda yuqori, ya’ni bunda korrelyatsiya koeffitsiyenti mos ravishda 0.934 va 0.946 ga teng.

Yuqoridagi keltirilgan hisob-kitoblar bo‘yicha quyidagi ko‘p omilli regression model shakllandi.

$$AS = -2.938 - 3.138IF + 0.022DV + 5.923KF + 1.782XF + 11.295EM + 7.251IM + \varepsilon$$

Shakllangan modelda to‘g‘rilangan determinatsiya koeffitsiyenti shuni ko‘rsatadiki, tijorat bankining muddatli valyuta operatsiyalari (*AS*)ni 99 foiz

modelda shakllantirilgan omillarga bog‘liqdir. Qolgan 1 foiz esa, hisobga olinmagan boshqa omillarga bog‘liq hisoblanadi.

Ekonometrik shakllantirilgan modelimizdan xulosa qilib, shuni ta’kidlash joizki, boshqa omillarni hisobga olmagan holda, *IF*- inflyatsiyaning yillik darajasi, *DV*- so‘mning AQSh dollariga nisbatan yillik devalvatsiya sur’ati, *KF*- milliy valyutadagi kreditlarning o‘rtacha yillik foiz stavkasi, *IF*- xorijiy valyutadagi kreditlarning o‘rtacha yillik foiz stavkasi, *EM* – eksport hajmi, *IM* – import hajmi bir vaqtini o‘zida 1 foizga o‘sishi tijorat bankini valyuta operatsiyalari hajmini 3,48 foizga o‘sishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, banklarning valyuta operatsiyalari hajmi mamlakat eksport va import hajmining o‘sishiga bog‘liq hisoblanadi. Shunigdek forvard yoki boshqa muddatli operatsiyalar milliy va xorijiy valyutadagi mablag‘larni bank foiz stavkalari ko‘rsatgichiga, mamlakat inflyatsiyasi ko‘rsatgichiga va milliy valyuta kursini o‘zgarish suratiga bog‘liq hisoblanadi. Banklarning valyuta operatsiyalardan olinadigan daromadini oshirishda valyuta xizmatlari hajmini va turini ko‘paytirish muhim hisoblanadi. Oxirgi yillarda tijorat banklarining valyutadagi xizmatlar hajmi va valyuta operatsiyalarida oladigan daromadlari o‘sish tendensiyasiga ega ekanligini ko‘rshimiz mumkin. Tijorat banklarida valyuta operatsiyalari hajmini, shu orqali bank daromadini oshirish bank tizimi rivojida hamda mamlakatimiz rivojiga muhim ahamiyatga ega deb hisoblaymiz.

Banklarning xorijiy valyutadagi aktivlari, depozitlari, majburiyatlar ulushi tahlil qilinganida oxirgi yillarda xorijiy valyuta ulushini kamayishi ko‘zga tashlanadi. Tijorat banklari muddatli valyuta operatsiyalari salomog‘i pastligi, tashqi hisob-kitoblarda vakillik munosabatlari bir tomonlama tashkil qilinganligini kuzatishimiz mumkin. Naqd pulsiz to‘lovlarining asosiy hujjalardan biri bo‘lgan akkreditivning to‘lovlar keng qo‘llanilishi xalqaro to‘lovlar muhim o‘ringa ega. Shundan kelib chiqib, akkreditivlar orqali to‘lovlar ulushini boshqa banklarda ham kengaytirish muhim deb hisoblaymiz.

Dissertatsiyaning “**Tijorat banklarida valyuta operatsiyalarini takomillashtirish istiqbollari**” deb nomlangan uchinchi bobida mamlakatimizda valyuta operatsiyalarini amalga oshirishdagi muammolar, ilg‘or xorij tajribalari asosida O‘zbekiston tijorat banklarida valyuta operatsiyalarini rivojlantirish masalalari hamda valyuta operatsiyalarini turlarini kengaytirish, valyuta risklarini pasaytirish hamda valyuta operatsiyalaridan daromadlarni oshirish istiqbollari tadqiq etilgan.

Valyuta risklarining mavjudligi valyuta bozorlarida valyuta operatsiyalarini amalga oshirilishi bilan bog‘liq. Valyuta risklari yuzaga kelishining asosiy sababi valyuta kurslari o‘zgarishi hisoblanadi. Bunday o‘zgarishlar hamma shaxslarga: ishbilarmon firmalar va davlat tuzilmalariga ham ta’sir ko‘rsatadi. Valyuta riskiga - tashqi savdo, kredit, valyuta operatsiyalari, hamda fond va tovar birjalarida amalga oshirilayotgan operatsiyalarda milliy valyuta kursiga nisbatan xorijiy valyuta kursini o‘zgarishi bilan bog‘liq valyuta yo‘qotishlari xavfi kiritiladi. Valyuta riskining hajmi valyutaning sotib olish qobiliyatining pasayishi bilan bog‘liq, shu sababli u bitim imzolangan va to‘loymi amalga oshirish muddati o‘rtasidagi vaqt oralig‘ining farqiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir.

Tijorat banklarida riskka tortilgan aktivlarning umumiy summasini aniqlashda balans va balansdan tashqari aktivlar bo'yicha risk summasi, operatsion risk va bozor riski hisoblanadi. Bozor riski aynan ochiq valyuta pozitsiyasi summasini 10 foizi miqdorida hisoblanadi. Ya'ni:

$$\text{BR} = (\text{100 / belgilangan K1 ning eng kichik darajasi}) \times (\text{Ochiq valyuta pozitsiyalarining jami miqdori} \times 10 \text{ foiz})$$

Valyuta riskini baholashning bir nechta standart usullari mavjud:

1. Ochiq valyuta pozitsiyasi tahlili. Valyuta riski avvalo bankning ochiq pozitsiyasi orqali baholanadi:

Qisqa pozitsiyada kurs oshsa zarar yuzaga keladi.

Uzun pozitsiyada kurs tushsa zarar yuzaga keladi.

2. Value-at-Risk (VaR). Banklar ko'p ishlataladigan risk o'lchovi.

VaR – ma'lum ehtimol (masalan 95% yoki 99%) bilan ma'lum vaqt ichida (1 kun, 10 kun) maksimum yo'qotish qancha bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

3. Stress-test. Valyuta kursi keskin o'zgarganda (masalan +20%, -30%) valyuta portfeliga qanday ta'sir bo'lishini hisoblash.

4. Sensitivlik tahlili. Kurs 1% yoki 1 sumga o'zgarsa qancha zarar/foyda paydo bo'lishini aniqlash. Masalan: foyda yoki zarar = Ochiq pozitsiya  $\times \Delta\text{Kurs}$

5. Korrelyatsiya va volatillik tahlili. Valyuta kurslari qay darajada o'zaro bog'liq, qay darajada tez o'zgaradi (volatillik), shu ma'lumotlar asosida risk modellari tuziladi.

Valyuta riskini boshqarishda asosiy e'tibor valyuta kursining o'zgarishi tufayli yuzaga keladigan yo'qotishlarni oldini olishga qaratiladi va tijorat banklari, multimilliylar korxonalar va boshqa xo'jalik subyektlari muddatli valyuta bozori bitimlarini tuzish orqali valyuta riskidan pul mablag'larini himoya qiladilar. Valyuta kursini prognozlash valyuta riskini oldini olishga xizmat qiladi. Bu jarayon boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni prognozlashga nisbatan juda murakkab faoliyat hisoblanadi. Valyuta kursini to'g'ri prognozlash uchun Markaziy bankning to'g'ri valyuta siyosati hamda inflyatsiya darajasini tartibga solish borasida qilinadigan ishlari muhimdir. Shuningdek, iqtisodiyotning ochiqlik darajasini ham e'tiborga olish lozim. Chunki iqtisodiyot qanchalik ochiq bo'lsa valyuta kursi va inflyatsiya darajasi orasidagi mutanosiblik yuqori bo'ladi.

Valyuta kursini prognozlashda foydalilaniladigan usullarni ikki guruhga bo'lish mumkin:

1. Miqdoriy tahlil asosida amalga oshiriladigan statistik usullar;

2. Sifat tomonini tahlil qilish asosida amalga oshiriladigan ekspert bahosi usullari.

Bu usullarning har biri turli xususiyatlari qarab amaliyotda qo'llanilishi mumkin. Bularning birini qo'llanilishi, ikkinchisini qo'llanilishini istisno qilmaydi. Amaliyotda asoson qisqa muddatlar uchun texnik tahlil usuli qo'llanilasa, o'rta va uzoq mulddatlar uchun fundamental tahlil usulining qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir.

Hozirda Respublikamizda tijorat banklari valyuta operatsiyalarini rivojlantirish borasida jiddiy muammolar bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1. Xorijiy valyutalarga bo'lgan barqaror talabning yuzaga kelmaganligi. Bu holatda Respublika valyuta birjasida AQSh dollariga talab uzlucksiz oshib borayotganligi ko'rildi. Buning natijasida so'mning AQSh dollariga nisbatan

almashinuv kursi pasayib bormoqda. Milliy valyutaning AQSh dollariga nisbatan kursini 1995-2024 yillar uchun o‘zgarishini ko‘radigan bo‘lsak, bu davrda (29 yilda) kurs darajasi 516,8 marta, yoki o‘rtacha yiliga 1,24 marta (24,0%ga) oshgan. Lekin oxirgi yillarni ko‘radigan bo‘lsak valyuta kursi barqarorligiga erishilgan. Oxirgi 5 yilda o‘rtacha 6,3 % atrofida kurs o‘zgargan.

2. Mamalakat joriy valyuta bozorining likvidligini ta’minlash imkoniyati yuzaga kelmagan. Buning natijasida O‘zbekiston banklari tomonidan muddatli valyuta operatsiyalarini deyarli amalga oshirilmaydi.

3. Korxona va tashkilotlarning joriy valyuta hisob varaqalarini yuritish tartibi haddan ziyod rasmiylashtirilgan va bitimlarning obyektiga qarab yo‘naltirilgan. Natijada korxonalar faqat belgilangan tovarlarni xarid qilish uchungina to‘lovni amalga oshirish xuquqiga ega. Bu tovarlarni xarid qilish uchun tuzilgan shartnomalar tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligida hamda mijozga xizmat ko‘rsatuvchi bankda albatta qayd etilishi kerak.

4. Tijorat «spot» kurslarining bozor bahosini shakllantirishda ayrim muammolarni mavjudligi. Bu joriy savdo operatsiyalarini, banklarning depozit ssuda operatsiyalarini amalga oshirishga to‘sinqilik qiladi, chunki bunda kursning keskin va favqulotda o‘zgarish xavfi saqlanib qoladi;

5. Xalqaro hisob-kitob operatsiyalarida to‘lov nisbatan yuqori darajada kafolatlangan hisob - kitob shakllarida amalga oshirilmoqda.

Lekin asosiy muammo - bu import hajmining yuqoriligi va eksport tarkibining optimal emasligidir. Respublikamiz millionlab AQSh dollarlarini asbob-uskuna, yangi texnologiyalar, nou-xau, bundan tashqari mashinalarni xarid qilishga sarflaydi. Bu sarflarni qoplash uchun yetarli darajada valyuta tushumlari bo‘lishi lozim. Hozirgi kunda respublikamiz tijorat banklarida valyuta operatsiyalarini bajaruvchi diling boshqarmalari faoliyatida quyidagi kamchilik va muammolar mayjud:

1. Jahonning yetakchi valyutalariga nisbatan koeffitsiyentlar qo‘llash bo‘yicha xalqaro qoidalariga rioya qilmaslik.

2. Respublika banklarining xorij banklari bilan bo‘lgan bir tomonlama korrespondent aloqalari. Agar bizda xorijiy banklar «Nostro» korrespondent raqamlarini ochganlarida, mahalliy banklarning xarajatlari kamayib, «Nostro» raqamlaridagi valyuta qoldiqlarining barqarorligiga erishgan bo‘lar edik. Ya’ni xorijiy banklar bilan ikki tomonlama korrespondent aloqalarining mavjudligi, import qiymatining to‘lovini amalga oshirish «Nostro» raqamidagi qoldiqlarning o‘zgarmasligiga olib kelar edi (bunda biz mijozning joriy hisob raqamini debetlab, bizning bankdagi xorijiy bankning «Vostro» korrespondent raqamini kreditlaymiz). Hozirgi vaqtida esa respublikamiz banklarining bir tomonlama korrespondent aloqalari tufayli import bo‘yicha to‘loving bajarilishidagi mablag‘lar xarakati quyidagichadir: mijozning valyuta hisobraqami debetlanib, mahalliy tijorat banklarining «Nostro» korrespondent raqami kreditlanadi.

3. Respublikamiz tijorat banklarida forward, fyuchers, option va svop operatsiyalarini kabi muddatli valyuta operatsiyalarining rivojlanmaganligi.

Xalqaro valyuta bozorining almashuv operatsiyalarida muddatli operatsiyalar ulushining ko‘payishi esa bozor ishtirokchilari daromadining oshishiga olib kelar edi. 2017-yilda valyutani liberallashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar pul-kredit sohasidagi islohotlarning eng muhimlaridan biri bo‘ldi. 2017-yilning sentyabrdan

milliy valyuta kursini iqtisodiyotda chet el valyutasiga bo‘lgan talab va taklifga asosan belgilash mexanizmi joriy qilindi hamda aholi va tadbirkorlik subyektlari tomonidan chet el valyutalarining sotilishi, sotib olinishi va tasarruf qilinishi borasidagi avval mavjud bo‘lgan cheklovlar bekor qilindi.

Bugungi kunda, O‘zbekiston Respublikasi Hukumati, Markaziy bank va valyuta nazoratining boshqa organlari tomonidan iqtisodiy islohotlar mobaynida ko‘rilgan chora-tadbirlar quyidagi natijalarga erishish imkonini berdi:

valyuta siyosatining huquqiy asosini vujudga keltirish;  
samarali valyuta nazorati va tartibga solish tizimini tashkil etish;  
iqtisodiy agentlar o‘rtasida chet el valyutasini samarali qayta taqsimlash mexanizmlarini tashkil etish;  
to‘lov balansini tartibga solishning zamonaviy uslublarini qo‘llash;  
birja va birjadan tashqari valyuta bozorlari faoliyatini yanada takomillashtirish;  
naqd va naqdsiz tarzda valyuta operatsiyalarini amalga oshirish qoidalarini, valyuta risklarini oldini olishning savdo va nosavdo operatsiyalari mexanizmini belgilash;  
xorijdan mablag‘ jalb qilishning taktika va strategiyasini belgilash;  
davlatning oltin-valyuta zahiralarini samarali boshqarish;  
xalqaro moliya tashkilotlari bilan o‘zaro foydali hamkorlikni amalga oshirish;  
valyuta kursini samarali tartibga solish;  
milliy valyutaning ichki erkin konvertirlanishini ta’minlash.

O‘zbekistan Respublikasida valyuta bozorini rivojlanishiga qo‘yidagi omillar sabab bo‘ladi:

eksportni rag‘batlantirish maqsadida iqtisodiyotni real sektoriga to‘g‘ridan to‘g‘ri kiritiladigan xorijiy investitsiyalar salmog‘ini oshirish;  
bank xizmatlariga bo‘lgan tariflarning pasaytirilishi;  
valyuta tushumlarini ko‘paytirish maqsadida xalqaro turizmni va u bilan bog‘liq servis infratuzilmasini rivojlantirish;  
bank ishchilarining rivojlangan mamlakatlarda amaliyotni o‘tish yo‘li bilan malakasini oshirish;  
tijorat banklari o‘z bo‘limlarining telekommunikatsiya tizimlari bilan ta’minlanishiga e’tibor berishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasida valyuta bozori va valyuta operatsiyalarini rivojlantirish hamda ularni takomillashtirish uchun quyidagilarni amalga oshirishni taklif etamiz:

birjadan tashqari valyuta bozorini, ayniqsa banklararo valyuta bozorini yanada rivojlanishi uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish. Ya’ni, banklararo bozor faoliyatini tartibga soluvchi va muvofiqlashtiruvchi qonun qoidalarni qabul qilish, ushbu bozor faoliyatini ta’minlovchi moliyaviy vositachilar va erkin muhit hamda moliyaviy ma’lumotlar yoki axborotlar ochiq-oydinligini ta’minlash.

”Qora bozor”ni yo‘q qilish va valyuta kursini Markaziy bank tomonidan nazorat etilishi hamda muvofiqlashtirishini ta’minlash uchun valyuta birjasи savdo jarayonida ishtiroy etuvchi subyektlar va operatsiyalar ko‘lamiga bo‘lgan cheklovlar bekor qilinishi lozim.

valyuta birjasida bo‘ladigan savdo sessiyalarida xorijiy valyutaga bo‘lgan talab va taklif tendensiyalarini hisobga olgan holda valyuta zahiralari hisobiga interventsiya

instrumentidan foydalangan holda davlatning iqtisodiy siyosatiga muvofiq valyuta kursiga ta'sir etish va uni muvofiqlashtirish jarayonlarini o'z nazoratiga olish.

## XULOSA

Tijorat banklarida valyuta operatsiyalarini takomillashtirish bo'yicha quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. O'zbekistonning jahon iqtisodiy integratsiyasida rivojlanishini ta'minlashda valyuta munosabatlarini shakllantirish, jahon iqtisodiga mos ravishda valyuta siyosatini yuritishni taqozo qilmoqda. Shu maqsadda mamlakatimizda valyuta munosabatini rivojlanish, valyuta operatsiyalarini shakllantirish, valyuta siyosatining muhim vazifasi hisoblangan valyuta kursi barqarorligini, milliy valyuta qadrini oshirish ustida faoliyat olib borish lozim.

2. Valyuta munosabatlari iqtisodiyotning asosiy va murakkab qismlaridan biridir. Hozirgi kunda barcha mamlakatlar qatori O'zbekiston ham tashqi iqtisodiy munosabatlarini rivojlanish va shu bilan birgalikda valyuta munosabatlarini rivojlanish, valyuta operatsiyalarini shakllantirish, muvofiqlashtirish va takomillashtirishga harakat qilmoqda.

3. Bizning fikrimizcha, valyuta va pul bir xil mohiyatli tushunchalar, faqat pul mamlakat hududida foydalaniladi, valyuta halqaro miqyosda qo'llaniladi. Valyuta kursi esa – bir birlik chet el valyutasining milliy valyutadagi bahosi yoki aksincha, bir birlik milliy valyutaning boshqa bir chet el valyutasidagi bahosidir, valyuta operatsiyalari – xorijiy valyutada hujjatlar va bitimlarni rasmiylashtirish hamda hisob-kitoblarni amalga oshirish bilan bog'liq faoliyatdir.

4. Tijorat banklari valyuta operatsiyalarini quyidagicha guruhlarga ajratish maqsadga muvofiq hisoblanadi: Valyuta ayiraboshlash yoki valyuta oldi-sotdi operatsiyalari, tijorat banklar tomonidan valyuta qimmatliklarini jalb qilish va joylashtirish bilan bog'liq, ya'ni depozit va kredit operatsiyalari, xalqaro hisob-kitob operatsiyalari, notovar bitimlar bilan bog'liq valyuta operatsiyalari, plastik kartochkalar bilan amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalari.

5. Mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyati rivojlanishi va tashqi savdo hajmini oshayotganligini, buning natijasida tijorat banklari valyuta operatsiyalari bo'yicha xizmatlari sifati va ko'lami oshganligini kuzatish mumkin. Ushbu sohada oxirgi 5-10 yil ichida rivojlangan mamlakatlar bilan iqtisodiy integratsiya yuzasidan ko'plab islohotlar amalga oshirilganligini ta'kidlab o'tish joiz.

6. Banklarning xorijiy valyutadagi aktivlari, depozitlari, majburiyatlari ulushi tahlil qilinganida oxirgi yillarda xorijiy valyuta ulushini kamayishi ko'zga tashlanadi. Tijorat banklari muddatli valyuta operatsiyalari salmog'i pastligi, tashqi hisob-kitoblarda vakillik munosabatlari bir tomonlama tashkil qilinganligini kuzatishimiz mumkin.

7. Banklarning valyuta operatsiyalari mamlakat eksport va import hajmiga, milliy va xorijiy valyutadagi kreditlarning stavkasiga, shuningdek, inflyatsiya va valyuta kursini o'zgarishiga bog'liq hisoblandi. Muddatli valyuta operatsiyalarni rivojlanishi banklarning valyuta operatsiyalaridan olinadigan daromadlarni hajmini va ulushini oshirishga xizmat qiladi.

8. Markaziy bank valyutani tartibga solish bo'yicha joriy qilgan tartiblari va valyuta operatsiyalarini amalga oshirish tartiblari tijorat banklari valyuta bilan bog'liq faoliyatini kengaytirishga sabab bo'ldi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.I.17.01 ПО  
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ  
ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ  
УНИВЕРСИТЕТ**

**БОЛТАЕВ ТУЛКИН КУЗИЕВИЧ**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ВАЛЮТНЫХ ОПЕРАЦИЙ В  
КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ**

**08.00.07 – «Финансы, денежное обращение и кредит»**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора философии (Doctor of Philosophy) по экономическим наукам**

**город Ташкент – 2025 год**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована под номером В2020.2PhD/Iqt1298 в Высшей аттестационной комиссии.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на сайте Научного совета ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) и на информационно-образовательном портале "Ziyouonet" ([www.ziyouonet.uz](http://www.ziyouonet.uz)).

Научный руководитель: Тошматов Зонир Худайберганович  
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты: Джумасев Нодир Хоснитович  
доктор экономических наук, профессор

Куллиев Истам Янгимурадович  
доктор экономических наук (DSc), доцент

Ведущая организация: Академия банковского дела и финансов  
Республики Узбекистан

Защита диссертации состоится в 14<sup>00</sup> часов «26» 12 2025 года на заседании Научного совета по присуждению ученых степеней № DSc.03/30.12.2019.I.17.01 при Ташкентском государственном экономическом университете. Адрес: 100000, город Ташкент, улица Амира Темура, д.60А. Тел: (99871) 234-53-34; факс: (99871) 234-46-26; e-mail: admin@tsue.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (зарегистрирована за номером 1857). Адрес: 100000, город Ташкент, улица Амира Темура, д.60А. Тел.: (99871) 234-53-34; факс: (99871) 234-46-26; e-mail: admin@tsue.uz

Автореферат диссертации разослан «13» 12 2025 года.  
(протокол реестра № 90 от «13» 12 2025 года).



Президент Научного совета по присуждению ученых степеней,  
доктор экономических наук, профессор

Ж.Х.Атаниязов  
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней,  
доктор экономических наук, профессор

И.Н.Кузинев  
Председатель научного семинара при  
Научном совете по присуждению  
ученых степеней, доктор  
экономических наук, профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Структурные изменения в мировой экономике, развитие на разных уровнях приводят к внедрению различных принципов и характеристик валютного обмена между странами и их совершенствованию. В то время как установление режима свободно плавающего валютного курса обеспечивает стабильность валют развитых стран, оно создает возможность влиять на экономику, изменяя валюты развивающихся стран и стран с переходной экономикой различными способами. По расчетам экспертов Международного валютного фонда, доллар США по-прежнему играет очень важную роль на мировом рынке. В частности, «доля резервов центральных банков в долларах США составляет 58,2 процента. Вторым лучшим показателем в этом отношении является евро с 19,7 процента. Далее следуют иена с 5,6 процента, фунт стерлингов с 4,9 процента, канадский доллар с 2,7 процента, австралийский доллар с 2,2 процента и юань с 2,1 процента»<sup>17</sup>. Наличие подобных ситуаций обуславливает необходимость изучения валютных операций и их развития.

Центральные банки по всему миру проводят ряд научных исследований, связанных с обменом, хранением и свободной конвертируемостью собственных валют и валют других стран. Сегодня повышение стоимости национальной валюты в условиях нестабильности между странами остается одним из важных вопросов. Проблема предоставления коммерческими банками достаточных и своевременных валютных средств экономическим субъектам, занимающимся внешней торговлей, а также проблема обеспечения золотого резерва страны в соответствии с международными стандартами, требуют от коммерческих банков проведения научных исследований, направленных на совершенствование и развитие валютных операций.

В Узбекистане ведется масштабная работа по либерализации валютных отношений и укреплению методологических основ организации валютных операций. С принятием Указа Президента Республики Узбекистан № УП-5177 от 2 сентября 2017 года «О приоритетных мерах по либерализации валютной политики» свобода коммерческих банков в проведении валютных операций возросла, и развитие валютных отношений нашей страны вышло на активную стадию. Согласно принятому указу, «с сентября 2017 года был введен порядок определения обменного курса национальной валюты исключительно на основе рыночных механизмов, то есть на основе спроса и предложения иностранной валюты на валютном рынке»<sup>18</sup>. Важно разработать меры по устранению негативного воздействия на экономику, возникающего в результате принятия данного Указа в валютном секторе. Развитие валютных отношений Республики Узбекистан, совершенствование валютных операций банков, включая упрощение деятельности валютно-обменных отделений коммерческих банков, исследование методологических вопросов

<sup>17</sup> [www.imf.com](http://www.imf.com) Расчеты автора основаны на данных Международного валютного фонда

<sup>18</sup> <https://lex.uz/docs/3326421> Указ Президента Республики Узбекистан № УП-5177 от 2 сентября 2017 года «О приоритетных мерах по либерализации валютной политики»

банковского обслуживания, таких как обслуживание международной торговли, привлечение депозитов в иностранной валюте и финансирование в иностранной валюте, разъяснение сущности основных понятий валютных отношений, а также совершенствование методологических основ для обеспечения того, чтобы либерализация валютных операций служила экономическому развитию и развитию внешнеэкономической деятельности, являются сегодня актуальными вопросами.

Указы Президента Республики Узбекистан № УП-158 от 11 сентября 2023 г. «О стратегии Узбекистана-2030», № УП-60 от 28 января 2022 г. «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы», № УП-5177 от 2 сентября 2017 г. «О приоритетных мерах по либерализации валютной политики», постановления Президента Республики Узбекистан № ПП-3270 от 12 сентября 2017 г. «О мерах по дальнейшему развитию и повышению стабильности банковской системы республики», № ПП-3620 от 23 марта 2018 г. «О дополнительных мерах по повышению популярности банковских услуг», а также данная исследовательская работа рассматривается как важная для достижения целей, изложенных в других нормативно-правовых документах, относящихся к данной теме исследования.

